

AMIR TEMUR IJODKORLIGI XUSUSIDA

GAVHAROY KAMOLDINOVA

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti tayanch doktoranti

Email: gavharishoda3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning ijod bilan shug'ullanganligi tadqiq ostiga olinadi. Shuningek, topilgan ijod namunalari nazariy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Temurning ijodiga to'xtalgan olimlar fikri o'zaro qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: adabiyot, tazkira, aruz, qofiya, "Zafarnoma", "Temur tuzuklari", Amir Temur, Shohrux Mirzo, Ulug'bek Mirzo.

Abstract. This article examines Amir Temur's creative activity. In addition, the found examples of creativity are analyzed theoretically and artistically. The opinions of scholars who have studied Temur's creativity are compared.

Keywords: literature, tazkira, aruz, rhyme, "Zafarnoma", "Temur tuzuklari", Amir Temur, Shohrux Mirzo, Ulugbek Mirzo.

KIRISH. To'rt asrdan ziyodroq temuriylar saltanati hukm surgan davlat o'zining nafaqat egallagan hududlari, balki ilm-fanning turli jabhalari va sohalari rivojlanganligi bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirdi. Astronomiya, geografiya, tarix, me'morchilik, shuningdek, adabiyotni yuqori pallaga ko'targan shaxslar bilan bir qatorda, rivojlanish uchun o'z hissasini qo'shgan hukmdorlar yuqorida sanalgan sohalarda mohirliklarini ko'rsatishdi. Tabiiyki, sulola asoschisi Amir Temur hech bir yo'nalishni yoddan chiqarmagan holda adabiyot homiysi sifatida ham o'zidan keyingi avlodlariga munosib o'rnak bo'ldi. Bu sulola davri adabiyotshunoslarimiz tomonidan "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" deya atala o'rganila boshlandi, maxsus tadqiqotlar yaratildi. A.Hayitmetovning aynan yuqoridagicha nomlangan kitobida ham davr adabiy muhiti haqida quyidagicha so'z yuritiladi: *"Amir Temur nozikta'b inson, go'zallikni his etadigan, adabiyot va san'atning qadriga yetadigan, zot ham edi. Uning badiiy adabiyotga munosabati shu paytgacha o'rganilmagan. Bunga oydinlik kiritishda bizga birinchi ko'makdosh Alisher Navoiydir* [1.Hayitmetov A., 1996: 14].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Sulola asoschisi ijod bilan mashg'ul bo'lganligiga bizning e'tiborimizni tortgan jihat "Temur tuzuklari"da Amir Husayn uchun yozilgan maktubda keltirgan baytdir. Bayt matni quyidagicha:

Yorga yetkur, sabo, kim makr qilmishdur manga,

Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun anga [2. Amir Temur, 2019: 46].

Shu paytgacha Amir Temurning ijod bilan shug'ullangan yoki yo'qligi degan masala bir qancha olimlarimiz tomonidan tadqiq qilingan. Ammo ularning deyarli

hammasida Amir Temur ijod qilmagan, shunga qaramay, juda yaxshi she'r o'qigan degan xulosaga kelingan. Bu xulosalarga kelinishiga yana bir sabab Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida hukmdorga bildirilgan fikrdir.

Ma'lumki, tazkirada, asosan, ijodi bilan shoir e'tiborini tortgan va alohida hurmat ko'rsatgan shaxslar o'rin olgan. Biroq bevosita yettinchi va sakkizinchi majlisi temuriylarga bag'ishlangan majlislar boshlanmasida Navoiyning quyidagi izohi o'rin olgan: *"Salotini izom (ulug') va avlodi vojub ul-ehtiromlari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xub bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat o'zlari aytqondek xubdur va ba'zi nazm latoyifiga mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dag'i matlub va marg'ubdur* [3.Alisher Navoiy, 2013: 411]. Ya'ni yettinchi majlisda Navoiyning shoirlik maqomiga erishmagan, ammo she'r o'qishda mohir bo'lganligini qayd qilgan sultonlar Amir Temur, Shohrux Mirzo va Ulug'bek Mirzolardir. Temur haqidagi ta'rif esa quyidagicha:

"... agarchi nazm qilmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor [4.Alisher Navoiy, 2013: 411].

NATIJA. Amir Temur o'zining adolatparvarligi, ilm-ma'rifat homiysi sifatida shuhrat qozonishi bilan bir qatorda munosib paytda, munosib o'rinda she'rni ayta, yoza olgan. Yuqoridagi keltirilgan bayt aynan Temurga tegishli ekanligini "Temur tuzuklari"da Amir Husayn bilan o'rtada bo'lib o'tgan voqeadan so'ng muallifning unga yozgan maktubi haqidagi fikrlari asoslaydi: *"... Amir Husaynga esa ushbu mazmunda turkiy bayt yozib yubordim..."*

Bayt tahlil qilinganda esa uning sof turkiy tilda ekanligi ko'rinib turibdi. Qofiyadosh so'zlari "manga"- "anga" so'zlaridir. G harfi raviy bo'lib, bunda qofiyaning tuzilishiga ko'ra raviydan so'ng harf kelganligi uchun mutlaq qofiya, o'zak tarkibiga ko'ra esa qofiyadosh so'zlar unli harf bilan yakunlanganligi sababli mujarrad qofiya sanaladi. Vazni esa aruzning ramali musammani mahzuf, foilotun-foilotun-foilotun-foilun afoylida, – V – – / – V – – / – V – – / – V – taqte'sida yozilgan.

MUHOKAMA. Temurning bundan tashqari yana ko'plab baytlar yozganligi "Zafarnoma" da Sharafiddin Ali Yazdiyning hukmdor ijodidan keltirgan baytlari orqali ham ma'lum bo'ladi. Bu haqida Sherxon Qorayevning "Temuriy shoirlar tazkisasi" monografiyasida Poyon Ravshanov tadqiqotidan keltirgan fikrlari asos bo'lib xizmat qiladi: *"Amir Temur va Temuriylar davridagi adabiy hayot haqida so'z yuritadigan bo'lsak, gapni Sohibqironning o'zidan boshlashga to'g'ri keladi. Tarixiy asarlarda, jumladan, "Zafarnoma"da Amir Temurga mansub bir necha bayt keltirib o'tiladi"* [5. Ravshanov P., 2006: 450].

Sohibqiron avlodi Shohrux Mirzoning ham tazkirada *"... nazmg'a mashg'ulluq qilmas erdi"* degan fikrlari, otasining maqomini tutganligi haqidagi Navoiy fikrlari ushbu hukmdorning ham shoir bo'lmaganligini ko'rsatishi mumkin. Biroq Herman

Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” nomli kitobida Shohrux Mirzoning turkiy va forsiy she’rlar yozganligi to’g’risidagi fikrlarga asoslanib, ushbu hukmdorning ijodkorligi tadqiq qilinishi kerak bo’lgan o’rinlardan ekanligi ayon bo’ladi.

XULOSA. Olimlar va boshqa tadqiqotchilarning yuqoridagi fikrga kelishlariga sabab agar Temur ijodkorlik qobiliyati bor bo’lganda Navoiy uni o’z tazkirasida keltirgan bo’lardi, – degan xulosalari ham bo’lishi mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, Navoiydek so’z dahosi va ijodkori sultonlik majlislari va yig’inlarida onda-sonda mavzuga mos baytlar keltirilishini ijodkorlik sanamagan ham bo’lishi ehtimoldan holi emas. Bizning ushbu fikrimizga sabab esa tazkirada Shohrux Mirzoga aytilgan fikrlardir: “... avlodi vaamjod orasida sohibqiron otasining qoyim maqomi bo’ldi. Ham mashg’ulluq qilmas erdi, ammo xub bayt va yaxshi so’zlar ko’p ul hazratdin ham voqe bo’lur erdi”, [6.Alisher Navoiy, 2013: 412] – deya Abulqosim Boburdan eshitgan naqlni keltirib o’tadi. Ko’rinib turibdiki, ba’zida munosib o’rinlarda baytlar keltira olinishini Navoiy ijodkorlik deya baholamagan. Chinakam shoir deya atalishi uchun esa o’z davri talablari hamda qoidalari mavjud bo’lgan. To’g’ri, baytlar yoza olish, u baytlarni g’azal yoki boshqa janrlar holiga keltirilgan namunalar yo’qligi Navoiyning ham yuqoridagi hukmdorlarning shoirlik maqomini olishiga to’sqinlik qilar, lekin aqliy tafakkuri yoki qalb kechinmalari aks etgan o’rinlarni she’riy qolipga solish ham insondan alohida qobiliyat, iqtidor talab etadi.

Keyingi davr olimlari esa, xususan, Herman Vamberining Shohrux Mirzo haqida bildirgan yuqoridagi fikrlari aynan shoirlik qilmasa ham nazmga iqtidori mavjud hukmdorlarni kashf qilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996. – 161 б.
2. “Амир Темур ўғитлари”. Нашрга тайёрловчилар: Б.Аҳмедов, А.Аминов.Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б.6.
3. Амир Темур тузуклари. – Тошкент: Шодлик, 2019. – 210 б.
4. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 9 жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2013. – 768 б.
5. Равшанов П. Сайланма.Иккинчи жилд. Toshkent: Янги аср авлоди, 2006.-Б.450.
6. Қораев Ш. Темурий шоирлар тазкираси. Монография. – Қарши: Интеллект нашриёти, 2024. –266 б.
7. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Toshkent: “Шарқ” НМК БТ, 1997.-Б.291.
8. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Toshkent: Ғ.Ғулом номидаги АСН,1990.-Б.72.